



Xorijiy tillarni o'qitish jarayonining zamonaviy filologik va lingvistik tendensiyalari

Jo'raboyeva Shahlo Baxtiyorovna

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

joraboyevashahlo8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy filologik va lingvistik tendensiyalar tahlil qilinadi. Xorijiy tillarni o'qitish metodikalarida yuz berayotgan yangiliklar va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot doirasida xorijiy tillarni o'qitishda qo'llanilayotgan innovatsion usullar, texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Ushbu tendensiyalar o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillarni o'qitish, filologik tendensiyalar, lingvistik tendensiyalar, innovatsion usullar, pedagogik yondashuvlar, til ko'nikmalari.

Abstract: This scientific work analyzes the modern philological and linguistic trends in the process of teaching foreign languages. Innovations in the methods of teaching foreign languages and their impact on the educational process are studied. The research examines the innovative methods, technologies, and pedagogical approaches used in teaching foreign languages. The importance of these trends in developing students' language skills is determined.

Keywords: Teaching foreign languages, philological trends, linguistic trends, innovative methods, pedagogical approaches, language skills.

Kirish Chet tilini o'zlashtirish so'nggi vaqtlarda yurtimizda keng tarzda rivojlandi desam, mubolag'a qilmagan bo'laman. Chunki bu borada so'nggi yillarda yurtimizda katta islohotlar va o'zgarishlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda ta'lim sohasini tubdan chet tillarga tadbiq qilish maqsadida taqdim etilayotgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari ham aynan shu maqsadning amaliy isbotidir. Binobarin, o'z ona tiliga qiziqqan va uni puxta o'rgangan o'quvchigina boshqa tillarga mehr qo'yib, ularni o'rgana oladi.

Shuningdek, yurtimizda til o'rganishga bo'lgan e'tibor nuqtai nazaridan ham oladigan bo'lsak, yaqin 5-10 yil ichida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi va bu siyosat darajasigacha olib chiqildi. O'z o'rnida xorijiy tillarni o'rganishga oid bir qator qaror va farmonlar ishlab chiqildi. Xususan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. 2021-yildan boshlab chet tili o'qituvchilariga



milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi kiritilishi haqida ta'kidlangan edi. Buning natijasida yurtimizda bir qancha chet tillarining kengroq tarqalishiga sabab bo'ldi va til o'rganuvchi insonlar son jihatdan ko'paydi.

Maqolada zamonaviy filologik ta'limda gastronomik reklama matnlarining umumnazariy muammolari o'rganildi. Shuningdek, gastronomik reklama inson hayotida naqadar kerakli ekanligi ham ushbu maqolada ko'rsatilgan. Ushbu maqolada zamonaviy filologik ta'limda reklama matnlarining umumnazariy muammolarini baholash bo'yicha yondashuvlar ham o'rganiladi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Ushbu tadqiqot uchun ilmiy adabiyotlar, zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va o'quv jarayonidagi innovatsion metodikalar haqida ma'lumotlar to'plandi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Sifatli tahlil uchun xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha tajribaga ega o'qituvchilar bilan intervyular o'tkazildi. Miqdoriy tahlil uchun esa, o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilib, ularning natijalari statistik usullar yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy filologik va lingvistik tendensiyalar xorijiy tillarni o'qitish jarayonida katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Innovatsion usullar va texnologiyalar o'quvchilarning til o'rganish samaradorligini oshirishi ko'rsatildi. Pedagogik yondashuvlarning xilma-xilligi va ularni to'g'ri qo'llash o'quv jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Muhokama

Tadqiqot natijalari xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy tendensiyalarni qo'llashning ahamiyatini tasdiqladi. O'qituvchilarning innovatsion yondashuvlardan foydalanish darajasini oshirish uchun ularning malakasini muntazam ravishda oshirish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratish zarurligi qayd etildi. Tadqiqot natijalari xorijiy tillarni o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

Hozirgi vaqtda xorijiy tillarni o'rganayotgan insonlar uchun tillarni o'rganish juda ham oson va unchalik ham mukammal ish emas. Shu sababdan bo'lsa kerak, hozirgi vaqtda bir tilni yaxshiroq o'rgangan inson ikkinchi tilni o'rganishi ham u inson uchun



qiyinchilik tugʻdirmaydi. Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda xorijiy tillarni oʻrganish uchun taʼlim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Aynan shulardan kelib chiqqan holda bugungi kun yoshlariga qoʻyilayotgan talab ham aynan chet tillarini bilish ekanligini hech birimizga sir emas. Zamonaviy texnologiyalar asosida chet tillarini oʻrganish orqali butundunyo hamjamiyatida vatanimizni Oʻzbekistonning alohida oʻrnini taʼminlash va uni yanada kengroq tadbiq qilish uchun ham xorijiy tillarni oʻrganish dolzarb va muhim

hisoblanadi. Oʻzbekistonni dunyo xalqlari orasida yanada oʻz oʻrniga ega boʻlishini taʼminlashda yoshlarning va ular oʻrganayotgan xorijiy tillarning oʻrni beqiyos sanaladi. Buni yanada mustahkamlash uchun esa til bamisoli koʻprik vazifasini oʻtab beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, insonda layoqat va sabr boʻlsa, hech bir chet tilini oʻrganishda qiyinchiliklar boʻlmaydi. Maktab, kollej va litsey, universitet va institutlarda tahsil oluvchi barcha yoshlar uchun chet tilini oʻrganishda turli shart-sharoitlar yaratilgan. Va yetarlicha bilimga ega pedagoglardan yetarlicha bilimlarni oʻrganish uchun ham keng miqyosli imkoniyatlar bor ekanligi aytib oʻtilsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

- Akhmedova Adolat Ravshan kizi. (2022). Problems of Formation of Phonetic Competence of Students (A Level 1). Eurasian Scientific Herald, 6, 160162. Retrieved from HYPERLINK "<https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/919>"
<https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/919>
- Rajabova Shahnoza Utkirovna. Chet tillarini oʻqitishda zamonaviy lingvistik yoʻnalishlari, lingvistik tamoyillaridan foydalanish (2024).
- AXMEDOVA, A. (2023). NEMIS TILI FONETIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTRIRISHDA INNOVATSION TAʼLIM TEXNOLOGIYALARINING ROLI . Journal of Research and Innovation, 1(4), 42-45. Retrieved from HYPERLINK "<https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/353>"
<https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/353>
- Akhmedova Dildora Joʻrakhan kizi Lutfulla Kholyirov. (2023). LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF OIKONIM AND HYDRONYMS IN THE GERMAN LANGUAGE. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 11(6), 172-176. HYPERLINK "<https://doi.org/10.5281/zenodo.8017468>" <https://doi.org/10.5281/zenodo.8017468>



- Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna. (2023). The Role of Dance Terminology in Linguistics. Genius Repository, 26, 83-85. Retrieved from HYPERLINK ["https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/246"](https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/246)
<https://www.geniusrepo.net/index.php/1/article/view/246>
- Zufiya, B. . (2022). Anthroponymy as a Branch of Linguistics: Concept, Basic Terms, History of Study. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(3), 142-144. Retrieved from HYPERLINK ["https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/502"](https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/502)
<https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/502>
- Qodirova Mukaddas Tog‘ayevna, . (2022). THE STUDY OF PRAGMATIC FEATURES OF ADDRESSING UNITS IN UZBEK LANGUAGE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(03), 61-66. HYPERLINK ["https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-03-12"](https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-03-12)
<https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-03-12>